O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI QO‘RG‘ONTEPA TUMANI HOKIMINING QARORI

Qo‘rg‘ontepa tuman, Andijon ko‘chasi 1-uy, tel: 74-723-14-61 Korgontepa@andijan.uz

2022 - yil 19 - iyul 375-1-23-Q/22 Qo‘rg‘ontepa tumani hokimligi

Qo‘rg‘ontepa tumanidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llariga yo‘l belgilari o‘rnatilishiga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 10 apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli qarori ijrosini ta’minlash, Qo‘rg‘ontepa tumani hududidan kesib o‘tuvchi avtomobil yo‘llarida transport vositalariniing tirbandliklar yuzaga kelishini oldini olish, piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, Qo‘rg‘ontepa tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2021 yil 15 dekabr kungi 193/1-sonli xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 25- moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qo‘rg‘ontepa tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2022 yil 10 iyun kungi 58/1-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror qabul qilinishini munosabati bilan:

- Qo‘rg‘ontepa tumani Ijtimoyat MFY hududidan o‘tuvchi 4R-135 Andijon sh. – Teshiktosh q. – Oyim q. – Qo‘rg‘ontepa sh. – Jalaquduq sh.-A-373 a/yo‘li (PK 49+70 km) 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatish uchun;

- Qo‘rg‘ontepa tumani Ijtimoyat MFY hududidan o‘tuvchi 4R-135 Andijon sh. – Teshiktosh q. – Oyim q. – Qo‘rg‘ontepa sh. – Jalaquduq sh.-A-373

a/yo‘li (PK 49+350 km) 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatish uchun;

- Qo‘rg‘ontepa tumani Ijtimoyat MFY hududidan o‘tuvchi 4R-135 Andijon sh. – Teshiktosh q. – Oyim q. – Qo‘rg‘ontepa sh. – Jalaquduq sh.-A-373 a/yo‘li (PK 49+600 km) 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatish uchun ruxsat berilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish Unitar korxonasi (M.Kazakov)ga mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limiga ushbu hududda harakatlanuvchi transport vositalarini mazkur yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilinishiga hamda harakat xavfsizligini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilingan kundan boshlab qonuniy quchga kiradi.

6. Qo‘rg‘ontepa tuman hokimligi matbuot xizmati rahbariga ushbu qarorni “Qo‘rg‘ontepa haqiqati” gazetasi va tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilish vazifasi topshirilsin.

7. Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Xakimovga zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Э.Набижанов**